
"Axborot xizmati": Farg'onaga yana «Kitob karvoni» keldi

Mamlakatimiz rahbari ilgari surgan 5 tashabbus doirasida Farg'ona viloyatida ham zarur chora-tadbirlar belgilanib, ularni amalga oshirish tadbirlari ko'rilmoxda.

Belgilangan vazifalardan biri - yosh avlodning kitobxonlik darajasini oshirish, ularni ma'naviy yuksaltirishdir. Ana shu maqsadda 2019 yil oxirigacha Farg'ona viloyatiga bir million nusxada kitob olib kelib tarqatish ko'zda tutilgan. Viloyat mahalliy byudjetidan sotib olinayotgan bu kitoblar viloyat bo'yicha kutubxonalariga beg'araz yordam sifatida tarqatilmoxda.

Biz viloyatimizga dastlabki kitob karvoni yetib kelgani haqida xabar bergen edik. Bugun yana 20 ming dona kitob viloyatimizga olib kelindi. Ushbu kitoblar karvoni viloyat axborot-kutubxona markazidan Qo'qon shahri, Beshariq, Rishton, Bag'dod, Quva tumanlariga yo'l oldi.

Qo'qon shahri, Rishton, Quva tumanlaridagi har bir sektorning bittadan mahallasi besh tashabbusni amalga oshirish bo'yicha namunali hudud bo'lishi belgilangan. Qolgan hududlar ham ana shu namuna asosida ish olib boradilar.

2019-06-16 16:37:16